UO‘K: **330.322:339.9(575.1)**

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi
Guliston davlat universiteti,
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Email: xilolamuhammadziyo@gmail.com
ORCID: 0009-0006-3483-7265

Andaqulov Hojimurod Xayitboy o‘g‘li
Guliston davlat universiteti, 2-kurs magistranti
Email: andaqulovh@gmail.com

O‘ZBEKISTON ERKIN IQTISODIY ZONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarining (EIZ) investitsion jozibadorligi 2022–2025-yillarning yillik statistik ma’lumotlari asosida baholangan. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, zonalarda sanoat mahsuloti nominal hisobda 2,27 marta (real ifodada taxminan 1,77 marta), asosiy kapitalga investitsiyalar 4,1 marta, ishtirokchi korxonalar soni esa 1,66 marta oshgan. Biroq eksport ulushi yillar bo‘yicha beqaror bo‘lib, davr boshi va oxirida 19,4 foizdan 15,0 foizga tushgan, shu davrda bir so‘m investitsiyaga to‘g‘ri keladigan mahsulot 7,3 so‘mdan 4,0 so‘mga, rentabellik 7,6 foizdan 0,6 foizga tushgan. Real o‘sishning qariyb 90 foizi yangi ishtirokchilar hisobiga bo‘lgan, bir korxonaga to‘g‘ri keladigan real mahsulot esa atigi 6,6 foizga ko‘paygan. Demak, zonalar asosan ekstensiv yo‘l bilan o‘smoqda, samaradorlik va eksportga yo‘naltirilganlik esa yaxshilanmagan. 2025-yildagi PF-41-son Farmon talablarini inobatga olgan holda imtiyozlarni amaldagi zonalarda ham eksport natijasiga bog‘lash, zonalarni indikatorlar orqali monitoring qilish, eksport infratuzilmasini rivojlantirish va statistik hisobotni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy zona, maxsus eksport zonasi, investitsion jozibadorlik, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, eksport salohiyati, soliq imtiyozlari, investitsiyalar samaradorligi.

Аннотация. В статье на основе годовых статистических данных за 2022–2025 гг. оценена инвестиционная привлекательность свободных экономических зон (СЭЗ) Узбекистана. Установлено, что объём промышленной продукции зон вырос в 2,27 раза в номинальном выражении (примерно в 1,77 раза в реальном), инвестиции в основной капитал – в 4,1 раза, число предприятий-участников – в 1,66 раза. Вместе с тем доля экспорта, колеблясь по годам, снизилась с 19,4 до 15,0%, выпуск продукции на один сум инвестиций – с 7,3 до 4,0 сума, рентабельность – с 7,6 до 0,6%. Около 90% реального прироста обеспечено новыми участниками, а реальный выпуск в расчёте на одно предприятие увеличился лишь на 6,6%. Следовательно, рост зон носит преимущественно экстенсивный характер, а показатели эффективности и экспортной ориентации не улучшились. С учётом Указа УП-41 2025 г. предложены меры по привязке льгот к экспортным результатам в действующих зонах, мониторингу зон на основе индикаторов, развитию экспортной инфраструктуры и совершенствованию статистической отчётности.

Ключевые слова: свободная экономическая зона, специальная экспортная зона, инвестиционная привлекательность, прямые иностранные инвестиции, экспортный потенциал, налоговые льготы, эффективность инвестиций.

Abstract. The article assesses the investment attractiveness of Uzbekistan’s free economic zones (FEZs) using annual statistics for 2022–2025. Industrial output in the zones grew 2.27-fold in nominal terms (about 1.77-fold in real terms), fixed capital investment 4.1-fold and the number of participating enterprises 1.66-fold. However, the export share, volatile from year to year, fell from 19.4% to 15.0%, output per soum of investment from 7.3 to 4.0 soums, and profitability from 7.6% to 0.6%. About 90% of real growth came from new participants, while real output per enterprise

rose by only 6.6%. Growth has therefore been mainly extensive, and efficiency and export orientation have not improved. Taking into account Presidential Decree PF-41 of 2025, the paper proposes linking incentives to export performance in existing zones, indicator-based monitoring of zones, developing export infrastructure and improving statistical reporting.

Keywords: free economic zone, special export zone, investment attractiveness, foreign direct investment, export potential, tax incentives, investment efficiency.

Kirish

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy kapital, texnologiya va tashqi bozorlarni jalb qilishning eng ko‘p qo‘llanadigan vositalaridan biriga aylangan. UNCTAD hisobotiga ko‘ra, 2019-yilda dunyoda 5 400 ga yaqin maxsus iqtisodiy zona bor edi [1]. Oradan uch yil o‘tib tashkil etilgan zonalarning global alyansi esa 145 ta iqtisodiyotdagi 7 000 dan ortiq zonani birlashtirdi [2]. Biroq zonalar sonining o‘zi natija degani emas. Xalqaro tajribada imtiyozlar evaziga investor jalb qilgan, lekin eksport va texnologik yangilanishda deyarli siljish bermagan zonalar kam emas [3; 4].

O‘zbekistonda zonalarning huquqiy asosi 2020-yil 17-fevralda qabul qilingan O‘RQ-604-son “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilangan. Qonunga ko‘ra, erkin iqtisodiy zona yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda importning o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun tashkil etiladi [5]. Keyinchalik qonunga o‘zgartishlar kiritildi: 2024-yil dekabrida zonalarning ma’muriy kengashlari tugatilib, ularning vazifalari zona direksiyalariga yuklandi [6]. “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida ham sanoat va eksport salohiyatini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [7].

Amaldagi natijalar esa ko‘zlangan maqsadlardan ancha uzoqda. 2025-yil 16-yanvarda Prezident raisligida o‘tkazilgan yig‘ilishda keltirilishicha, 2024-yilda 22 ta EIZda ishga tushgan 589 ta korxona 42 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan. Shundan atigi 18 foizi tashqi bozorlarga sotilgan, 372 ta korxona umuman eksport qilmagan, yuqori texnologiyali tovarlar ulushi esa 16 foiz bo‘lgan [8; 9]. Yig‘ilishda zonalardagi korxonalar imtiyozni kiritgan sarmoyasiga qarab olayotgani tanqid qilindi va bundan buyon faqat eksportga ishlaydigan zonalar tashkil etilishi belgilandi. Oradan ko‘p o‘tmay, 2025-yil 4-martda PF-41-son Farmon qabul qilindi. Unga ko‘ra maxsus iqtisodiy zonalar faqat eksport loyihalariga ixtisoslashgan maxsus eksport zonasi shaklida ham tashkil etilishi mumkin, birinchi shunday zona Namanganda ochiladi, 2025-yilda esa MIZlar eksportini 1 mlrd AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo‘yildi [10]. Davlat siyosatining urg‘usi investitsiya hajmidan eksport natijasiga ko‘chmoqda. Bunday sharoitda zonalarning investitsion jozibadorligini faqat jalb qilingan kapital miqdori bilan emas, balki shu kapital qanday natija berayotgani bilan ham o‘lchash kerak. Maqolada aynan shu yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqotning maqsadi - O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarining investitsion jozibadorligini rasmiy statistik ko‘rsatkichlar asosida baholash va uni oshirish yo‘nalishlarini asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

– zonalar samaradorligini baholashga oid nazariy yondashuvlar va xorijiy tadqiqotlar xulosalarini umumlashtirish;

– 2022–2025-yillarning yillik ma’lumotlari asosida zonalar faoliyatining mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

– O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi bilan qiyoslash;

– PF-41-son Farmon talablarini hisobga olgan holda investitsion jozibadorlikni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Zonalarning investorni qanday jalb qilishini tushuntirishda ko‘pincha J. Dunningning eklektik (OLI) paradigmasiga tayaniladi: O - Ownership (egalik afzalligi), L - Location (joylashuv afzalligi), I - Internalization (ichkilashtirish afzalligi) [11]. Bu yondashuvga ko‘ra, xorijiy investor kapitalini qayerga joylashtirishni hal qilayotganda joylashuv afzalliklarini, ya’ni bozor, resurslar, xarajatlar va institutlar sifatini tortib ko‘radi. EIZni shu afzalliklarni sun’iy ravishda

kuchaytiradigan vosita deb qarash mumkin: imtiyozlar xarajatni kamaytiradi, tayyor infratuzilma va soddalashgan tartiblar esa tranzaksiya xarajatlarini qisqartiradi.

Ammo bu vosita har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Jahon banki qoshidagi FIAS (Xorijiy investitsiyalar bo‘yicha maslahat xizmati) hisobotida zona muvaffaqiyati soliq imtiyozlaridan ko‘ra ko‘proq mamlakatdagi umumiy investitsiya muhiti, infratuzilma sifati va zonani boshqarish modeliga bog‘liq ekani ko‘rsatilgan [3]. T. Farole Afrika zonalarini boshqa mintaqalar bilan solishtirib, faqat imtiyozga tayangan zonalar investitsiya va eksportda past natija berishini, muvaffaqiyat esa milliy iqtisodiyot bilan aloqalar va boshqaruv sifatiga bog‘liqligini aniqlagan [4]. D. Zeng Xitoy tajribasida hukumatning izchil qo‘llab-quvvatlashi, oldindan qurilgan infratuzilma va texnologiya olib kiradigan investorlarni maqsadli tanlash hal qiluvchi rol o‘ynaganini qayd etadi [12]. A. Aggarwal Hindiston misolida zonalarning eksport va bandlikka ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan, biroq imtiyozlar qiymati va yer ajratish bilan bog‘liq muammolarni ham chetlab o‘tmagan [13]. UNCTAD esa umumiy imtiyozli zonalardan ixtisoslashgan, texnologik yangilanishga yo‘naltirilgan zonalarga o‘tishni tavsiya qiladi [1].

Keyingi yillardagi tadqiqotlar ham shu xulosani mustahkamlaydi. S. Frick va A. Rodríguez-Pose Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi zonalarni qiyoslab, xorijiy investor qaroriga asosan bozorga chiqish imkoniyati, siyosiy barqarorlik va arzon ishchi kuchi ta’sir qilishini aniqlagan. Zona darajasida esa sifatli sanoat infratuzilmasi, qulay joylashuv va zona ichidagi xizmatlar muhim bo‘lib chiqqan, soliq imtiyozlarining ta’siri cheklangan [14]. Shu mualliflar yetti mamlakat zonalari misolida rezidentlarning mahalliy yetkazib beruvchilar bilan aloqalari zaif ekanini, xomashyo va butlovchi qismlar asosan importdan olinishini ham ko‘rsatgan [15]. A. Rodríguez-Pose va hammualliflar Efiopiya, Marokash va Janubiy Afrika tajribasini o‘rganib, aniq strategik ixtisoslashuvga ega, idoralararo hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va mahalliy iqtisodiyot bilan aloqalarni faol shakllantirgan zonalar muvaffaqiyatliroq bo‘lishini qayd etgan [16].

O‘zbek tadqiqotchilari ham zonalar faoliyatini turli tomondan o‘rganib kelmoqda. U. Habibjonov 2023-yildagi tartibga solish islohotlaridan keyin zonalarga investitsiya oqimi qariyb 25 foizga oshganini, lekin infratuzilma va byurokratik to‘siqlar salohiyatni cheklayotganini ta’kidlaydi [17]. Sh. Chinmirzayev zonalar rivojiga xalal beradigan omillar sifatida infratuzilma zaifligi, ma’muriy to‘siqlar va moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarni ajratib ko‘rsatadi [18]. N. Qilicheva zonalar mahsulotining asosiy qismi ichki bozorda sotilayotganini qayd etib, ularni eksportga yo‘naltirilgan, yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarishga qayta yo‘naltirishni taklif qiladi [19]. E. Mamadiyev va K. Sharipov esa zonalarning huquqiy, iqtisodiy va institutsional asoslarini tahlil qilgan [20]. Sharhdan ko‘rinadiki, xorijiy adabiyotlarda zonalar asosan natijaviy ko‘rsatkichlar – eksport, texnologik daraja va investitsiyalar samaradorligi orqali baholanadi. Mahalliy ishlarda esa sifat tahlili ustunlik qiladi, zonalar faoliyati nisbiy ko‘rsatkichlar dinamikasida kam o‘rganilgan, 2025-yilda boshlangan siyosat o‘zgarishlari esa hali deyarli tahlil qilinmagan. Ushbu maqola shu bo‘shliqni qisman to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili, nisbiy ko‘rsatkichlar va qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. Asosiy axborot manbai sifatida Milliy statistika qo‘mitasi (2023-yilda – Prezident huzuridagi Statistika agentligi) e’lon qilgan maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) faoliyatiga oid yillik press-relizlardan foydalanildi [21; 22; 23; 24]. Ularda sanoat mahsuloti, asosiy kapitalga investitsiyalar, eksport, moliyaviy natija va ishtirokchilar soni bir xil uslubda keltirilgan. Shu bois tahlil 2022–2025-yillarning yillik ko‘rsatkichlari bo‘yicha yillar kesimida olib borildi, davr davomidagi umumiy o‘zgarish esa 2022 va 2025-yillarni solishtirish orqali baholandi. 2026-yilning I choragi ma’lumotlari [25] esa so‘nggi tendensiyani kuzatish uchungina olindi. Choraklik ko‘rsatkichlarni asosiy tahlilga kiritmadik, chunki ularda mavsumiylik kuchli: masalan, 2025-yilda I chorak yillik mahsulotning atigi 17 foizini bergan [24; 25].

Statistik relizlarda MIZ, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlar alohida ko‘rsatiladi, tahlilga ulardan faqat MIZ olindi. Qonunga ko‘ra maxsus iqtisodiy zonalar besh turda tashkil etiladi: erkin iqtisodiy zonalar, maxsus ilmiy-texnologik zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, erkin savdo zonalari va maxsus sanoat zonalari [5]. Relizlarda MIZ ko‘rsatkichlari turlar bo‘yicha

ajratilmaydi. Shunga qaramay, ularni EIZlar uchun yaqin taqrib sifatida olish mumkin: 2024-yilda 22 ta EIZ korxonalari 42 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan [8], barcha MIZ korxonalarining mahsuloti esa 44,2 trln so‘mni tashkil etgan [24]. Demak, MIZ sanoat mahsulotining qariyb 95 foizi EIZlarga to‘g‘ri keladi. Maxsus hududlar tizimida ham MIZ yetakchi: 2025-yilda MIZ, kichik sanoat zonalari, texnoparklar va klasterlarda jami 119,4 trln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan, uning 51,8 foizi (61,8 trln so‘m) MIZ hissasiga to‘g‘ri kelgan [24].

Korxonalar soni haqida alohida to‘xtalish kerak. Statistika qo‘mitasi faqat loyihasi ishga tushirilgan ishtirokchilarni hisobga oladi [24], 2025-yil oxirida ular 1 127 ta bo‘lgan. Yig‘ilishda tilga olingan 589 ta korxona esa faqat 22 ta EIZga tegishli va, ehtimol, boshqa hisob tartibiga asoslangan [8]. Bu ikki raqamni bevosita solishtirib bo‘lmaydi. Shu sababli “bir korxonaga to‘g‘ri keladigan mahsulot” ko‘rsatkichiga taxminiy baho sifatida qaradik.

Investitsion jozibadorlik mutlaq ko‘rsatkichlar (zonalar va korxonalar soni, sanoat mahsuloti, investitsiyalar, eksport, foyda) bilan birga quyidagi nisbiy ko‘rsatkichlar orqali baholandi:

– eksport ulushi = eksport ÷ sanoat mahsuloti × 100%;

– bir korxonaga to‘g‘ri keladigan mahsulot = sanoat mahsuloti ÷ yil oxiridagi korxonalar soni;

– investitsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti (ISK) = sanoat mahsuloti ÷ asosiy kapitalga investitsiyalar; investitsiya samarasi kechikib namoyon bo‘lishini hisobga olish uchun ISK bir yillik lag bilan ham hisoblandi: t-yil mahsuloti ÷ (t–1)-yil investitsiyalari;

– rentabellik = foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda ÷ sanoat mahsuloti × 100%.

Ko‘rsatkichlar joriy narxlarda hisoblandi, real o‘sish esa iste’mol narxlari indeksi (IIN) yordamida baholandi. 2023, 2024 va 2025-yillarda yillik (dekabr–dekabr) inflyatsiya mos ravishda 8,8; 9,8 va 7,3 foizni tashkil etgan [26; 27], ya’ni 2022–2025-yillarda narxlar jami 28,2 foizga oshgan. MIZ mahsuloti uchun alohida narx indeksi e’lon qilinmaydi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari narxlari indeksi aniqroq deflyator bo‘lishi mumkin edi, ammo u butun sanoat bo‘yicha hisoblanadi va uning tarmoq tarkibi MIZnikidan farq qiladi. Shuning uchun real ko‘rsatkichlar baholovchi xususiyatga ega. ISK ham daromadlilik (ROI) ko‘rsatkichi emasligini ta’kidlash lozim: u zonadagi barcha korxonalar mahsulotini shu yilgi yangi investitsiyalar bilan solishtiradi, investitsiya samarasi esa odatda bir necha yil kechikib namoyon bo‘ladi. Shu bois ISKdan faqat dinamikani kuzatish uchun foydalandik.

Tahlil va natijalar

Yillik ma’lumotlar 2022-2025-yillarda zonalarning hajm ko‘rsatkichlari tez o‘sganini, ammo samaradorlik ko‘rsatkichlari bu o‘sishga ergashmaganini ko‘rsatadi. Asosiy ko‘rsatkichlar yillar kesimida 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

O‘zbekiston maxsus iqtisodiy zonalari faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari (joriy narxlarda)

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2025-yil 2022-yilga nisbatan
Zonalar soni (yil oxiriga), ta	20	21	25	31	+11 ta
Ishtirokchi korxonalar (yil oxiriga), ta	679	768	1 071	1 127	1,66 marta
Sanoat mahsuloti, mlrd so‘m	27 252,1	37 769,2	44 182,5	61 823,4	2,27 marta
Sanoat mahsuloti nominal o‘sishi, %	145,7	138,6	117,0	139,9	–
Sanoat mahsuloti real o‘sishi (IIN bo‘yicha), %	–	127,4	106,5	130,4	1,77 marta
Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd so‘m	3 735,0	6 269,6	16 511,5	15 490,1	4,15 marta (real 3,24 marta)
Respublikadan tashqariga jo‘natilgan mahsulot (eksport), mlrd so‘m	5 290,6	5 956,4	16 020,8*	9 295,6	1,76 marta
Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda, mlrd so‘m	2 081,4	1 177,4	1 745,5	364,2	5,7 marta kamaygan

Manba: Statistika agentligi va Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari [21; 22; 23; 24] asosida mualliflar hisob-kitobi. Zonalar va korxonalar soni keyingi yilning 1-yanvari holatiga olingan. 2022-yilgi nominal o‘sish 2021-yil mahsuloti (18 704,2 mlrd so‘m) [21] bo‘yicha hisoblangan. Real o‘sish IIN [26; 27] bo‘yicha hisoblangan. Dastlabki ma’lumot [23].

Uch yil ichida ishtirokchisi bor zonalar soni 20 tadan 31 taga, ishtirokchi korxonalar 679 tadan 1 127 taga yetgan. Sanoat mahsuloti har yili o‘sib borgan: 2021-yilda MIZ korxonalari 18,7 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 27,3 trln, 2023-yilda 37,8 trln, 2024-yilda 44,2 trln, 2025-yilda esa 61,8 trln so‘mga yetgan [21; 22; 23; 24]. Inflyatsiya chegirilganda o‘sish 2023-yilda 27,4 foizni, 2024-yilda 6,5 foizni, 2025-yilda 30,4 foizni tashkil etgan, ya’ni 2024-yilda sezilarli sekinlashuv kuzatilgan. Butun davr mobaynida mahsulot nominal 2,27 marta, real ifodada esa taxminan 1,77 marta oshgan. Investitsiyalar bundan ham tezroq o‘sgan: 2022-yildagi 3,7 trln so‘mdan 2024-yilda 16,5 trln so‘mgacha ko‘tarilgan, 2025-yilda esa 15,5 trln so‘mga biroz kamaygan. Umuman olganda, investitsiyalar 4,1 marta (real ifodada 3,2 marta) ko‘paygan. Investitsiyaning mahsulot hajmiga nisbati 2022-yilda 14 foiz, 2023-yilda 17 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 37 foizga yetgan, 2025-yilda esa 25 foizga tushgan. Demak, investitsiya faolligining cho‘qqisi 2024-yilga to‘g‘ri kelgan. 2026-yilda ham o‘sish davom etmoqda: 1-aprel holatiga zonalar soni 33 taga, korxonalar 1 116 taga yetgan, I chorakda 14 trln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 31,4 foiz o‘sish qayd etilgan [25]. Miqdoriy jihatdan zonalar investorlar uchun tobora jozibador bo‘lib borayotgani shubhasiz.

Nisbiy ko‘rsatkichlarga o‘tsak, manzara boshqacha ko‘rinadi (2-jadval).

2-jadval

Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining nisbiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2022	2023	2024	2025	2025-yil 2022-yilga nisbatan
Eksport ulushi, %	19,4	15,8	36,3*	15,0	−4,4 f.b.
Investitsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti (mahsulot ÷ investitsiya), so‘m	7,3	6,0	2,7	4,0	1,8 marta kamaygan
ISK bir yillik lag bilan (mahsulot ÷ o‘tgan yil investitsiyasi), so‘m	–	10,1	7,0	3,7	2,7 marta kamaygan (2023–2025)
Bir korxonaga to‘g‘ri keladigan mahsulot, mlrd so‘m	40,1	49,2	41,3	54,9	+36,7%
Bir korxonaga to‘g‘ri keladigan mahsulot, 2022-yil narxlarida, mlrd so‘m	40,1	45,2	34,5	42,8	+6,6%
Rentabellik (foyda ÷ mahsulot), %	7,6	3,1	4,0	0,6	−7,0 f.b.

Manba: 1-jadval ma’lumotlari asosida mualliflar hisob-kitobi. Dastlabki ma’lumot asosida. f.b. – foiz bandi.

Birinchidan, kapital natijaga sekin aylanmoqda. Bir so‘m investitsiyaga to‘g‘ri keladigan mahsulot 2022-yildagi 7,3 so‘mdan 2023-yilda 6,0 so‘mga, investitsiya cho‘qqisiga chiqqan 2024-yilda esa 2,7 so‘mga tushgan. 2025-yilda bu ko‘rsatkich 4,0 so‘mgacha tiklandi: avvalgi yili kiritilgan quvvatlar ishga tusha boshlagani mahsulotning 40 foizga o‘sishida ko‘rinadi. Biroq investitsiya samarasi kechikishini hisobga olgan holda ham manzara o‘zgarmaydi: bir yillik lag bilan hisoblangan ISK 2023-yildagi 10,1 so‘mdan 2024-yilda 7,0 so‘mga, 2025-yilda 3,7 so‘mga, ya’ni 2,7 marta kamaygan. Buni o‘z-o‘zidan salbiy hol deb bo‘lmaydi, chunki yirik loyihalar o‘zlashtirish bosqichida turganda ISK doimo pasayadi. Ammo bu loyihalar belgilangan muddatda to‘liq quvvat bilan ishga tushmasa, kapital samaradorligi uzoq vaqt past bo‘lib qoladi.

Ikkinchidan, o‘sish asosan yangi ishtirokchilar hisobiga ta’minlangan. Real mahsulotning 1,77 marta oshishini ikki omilga ajratish mumkin: korxonalar soni 1,66 marta ko‘paygan, bir korxonaga to‘g‘ri keladigan real mahsulot esa bor-yo‘g‘i 6,6 foizga oshgan. Yillar kesimida bu ko‘rsatkich beqaror: 2023-yilda 45,2 mlrd so‘mgacha ko‘tarilgan, korxonalar soni keskin ko‘paygan

2024-yilda 34,5 mlrd so‘mga tushgan, 2025-yilda esa 42,8 mlrd so‘mga qaytgan. Bu yangi korxonalar dastlab o‘rtacha darajadan ancha kichik quvvat bilan ishlashini ko‘rsatadi. Logarifmik dekompozitsiya bo‘yicha real o‘sishning qariyb 89 foizi korxonalar soni ortishiga, 11 foizi esa o‘rtacha korxona unumdorligiga to‘g‘ri keladi. Boshqacha aytganda, o‘sish ekstensiv xususiyatga ega. Bu zonalarga yangi rezidentlar faol kirib kelayotganini bildiradi, lekin mavjud korxonalar unumdorligida sezilarli siljish yo‘qligini ham ko‘rsatadi. Metodologiya qismida aytilganidek, korxonalar sonini hisoblash tartibi sababli bu natijani taxminiy deb qabul qilish kerak.

Uchinchidan, zona korxonalarining rentabelligi keskin pasaygan. 2022-yilda MIZ korxonalari 2,08 trln so‘m soliqqa qadar foyda olgan bo‘lsa, 2023-yilda bu summa 1,18 trln, 2024-yilda 1,75 trln, 2025-yilda esa atigi 0,36 trln so‘mni tashkil etgan [21; 22; 23; 24]. Mahsulot hajmi ikki baravardan ko‘proq oshgani holda foydaning mahsulotdagi ulushi 7,6 foizdan 2023-yilda 3,1 foizga tushgan, 2024-yilda 4,0 foizga biroz tiklangan, 2025-yilda esa 0,6 foizgacha pasaygan. Buning sabablari sifatida yangi loyihalarni ishga tushirish davridagi xarajatlar, amortizatsiyaning ortishi va qarz yukini ko‘rsatish mumkin. 2024–2025-yillarda Markaziy bankning asosiy stavkasi 13,5–14 foiz atrofida bo‘ldi [28], ya’ni kredit resurslari qimmatligicha qoldi. 2026-yil 1-yanvar holatiga MIZ korxonalarining kreditor qarzdorligi 27,9 trln so‘mni tashkil etib, debitor qarzdorlikdan (22,8 trln so‘m) qariyb 5 trln so‘mga ko‘p bo‘lgan [24]. Agar rentabellik pasayishda davom etsa, bu yangi investorlar uchun jiddiy salbiy signal bo‘ladi.

To‘rtinchidan, zonalarning eksportga yo‘naltirilganligi barqaror emas. Eksport ulushi 2022-yilda 19,4 foiz, 2023-yilda 15,8 foiz, 2025-yilda 15,0 foiz bo‘lgan. 2024-yilda esa dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra eksport 16,0 trln so‘mga, ulushi 36,3 foizga sakragan [23]. Ammo bu raqamni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak: xuddi shu yil uchun Prezident yig‘ilishida 22 ta EIZ mahsulotining atigi 18 foizi tashqi bozorga sotilgani aytilgan [8], keyingi yili esa MIZ eksporti 9,3 trln so‘mga, ya’ni 42 foizga kamaygan. Bu farq bir martalik yirik yetkazib berish yoki dastlabki ma’lumotlarning keyinchalik aniqlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Davr boshi va oxirini solishtirsak, eksport 1,76 marta, ishlab chiqarish esa 2,27 marta ko‘paygan, eksport ulushi 4,4 foiz bandiga tushgan. Ya’ni zonalar mahsulotining 80 foizdan ortig‘i ichki bozorda sotilmoqda, bu mahalliy tadqiqotlar xulosalariga ham mos keladi [19]. PF-41-son Farmonda 2025-yil uchun qo‘yilgan vazifa bilan solishtirsak, MIZ eksporti (9,3 trln so‘m) yil davomidagi valyuta kursi bo‘yicha taxminan 0,7-0,8 mlrd AQSh dollariga teng bo‘lib, 1 mlrd dollarlik mo‘ljaldan past qolgan.

Aniqlangan nomutanosibliklar 3-jadvalda umumlashtirilgan.

3-jadval

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatida aniqlangan nomutanosibliklar

Yo‘nalish	Qonundagi maqsad [5]	Amaldagi holat	Xulosa
Eksport	Eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish	Eksport ulushi 19,4% (2022), 15,8% (2023), 15,0% (2025); 2024-yilda EIZlarda 18%, 372 korxona eksport qilmagan [8]	Zonalar asosan ichki bozorga ishlamoqda
Texnologik daraja	Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish	2024-yilda yuqori texnologiyali mahsulot ulushi 16% [9]	Texnologik yangilanish sust
Yangi quvvatlar	Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish	Korxonalar 1,66 marta ko‘paygan, bir korxonaga real mahsulot atigi 6,6% oshgan (2022–2025)	O‘sish asosan ekstensiv
Investitsiya	Chet el va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish	Investitsiyalar 4,1 marta, mahsulot 2,3 marta oshgan; lagli ISK 10,1 dan 3,7 so‘mga tushgan; rentabellik 7,6% dan 0,6% ga pasaygan	Kapital natijaga sekin aylanmoqda

Bu nomutanosibliklarning sababini xalqaro tajriba yaxshi tushuntiradi. Xitoyda zonalar muvaffaqiyati texnologiya olib kiradigan investorlarni maqsadli tanlash va zonalarni klasterlarga aylantirish bilan bog‘liq bo‘lgan [12]. Farole tadqiqotiga ko‘ra, faqat imtiyozga tayangan zonalar ichki bozorga ishlaydigan, past texnologiyali ishlab chiqarishni o‘ziga tortadi [4]. So‘nggi qiyosiy

tadqiqotlar ham investor uchun soliq imtiyozlaridan ko‘ra infratuzilma, joylashuv va zona xizmatlari muhimroq ekanini tasdiqlaydi [14]. O‘zbekistonda esa 2025-yilgacha imtiyozlar asosan kiritilgan investitsiya hajmiga bog‘lab berilgan [8; 9], shuning uchun rezidentlarda eksportga chiqish uchun qo‘shimcha rag‘bat bo‘lmagan. PF-41-son Farmon bu yo‘nalishdagi muhim qadam bo‘ldi. Biroq undagi asosiy e’tibor yangi tashkil etiladigan maxsus eksport zonalariga hamda eksport mahsuloti uchun olib kiriladigan xomashyoning bojxona rejimiga qaratilgan [10]. Allaqachon faoliyat yuritayotgan 30 dan ortiq zona va ulardagi mingdan ortiq rezident uchun imtiyozlarni eksport natijasiga bog‘lash masalasi hali ochiq turibdi.

Xalqaro statistik ma’lumotlar bilan qiyoslash ham shu xulosaga olib keladi (4-jadval).

4-jadval

Ayrim mamlakatlarda maxsus zonalarning milliy eksportdagi ulushi

Mamlakat va zonalar qamrovi	**Zonalarning milliy eksportdagi ulushi, %**	**Yil**	**Manba**
Xitoy (barcha turdagi zonalar va sanoat parklari)	taxminan 60	2007	[29]
BAA (erkin zonalar)	19,5	2017	[30]
O‘zbekiston (22 ta EIZ)	taxminan 2,2 (oltinsiz eksportga nisbatan – 3,1)	2024	[8; 31], mualliflar hisobi

Izoh: O‘zbekiston EIZlari eksporti 2024-yilgi mahsulot hajmi (42 trln so‘m) va uning eksport ulushi (18%) asosida, yillik o‘rtacha kurs bo‘yicha (1 AQSh dollari = 12 654 so‘m) [32] hisoblangan va taxminan 0,6 mlrd dollarni tashkil etadi. U mamlakatning jami eksporti (26,9 mlrd dollar, shundan oltinsiz – 19,5 mlrd dollar) [31] bilan solishtirilgan. BAA ko‘rsatkichiga erkin zonalardan qayta eksport ham kiradi, Xitoy ko‘rsatkichi esa barcha turdagi zonalar va sanoat parklarini qamraydi. Ko‘rsatkichlar turli yillarga tegishli bo‘lgani uchun jadval umumiy tasavvur berish maqsadida keltirilgan.

Farq juda katta. Eksportga yo‘naltirilgan zonalar tizimi shakllangan mamlakatlarda zonalar milliy eksportning salmoqli qismini ta’minlaydi: Xitoyda qariyb 60 foiz, BAAda 19,5 foiz. O‘zbekistonda esa oltinni hisobga olmaganda ham bu ulush 3 foiz atrofida. Qo‘shni Qozog‘iston tajribasi ham o‘xshash muammoni ko‘rsatadi: 2025-yilda mamlakatdagi 17 ta MIZ eksporti taxminan 490 mln AQSh dollarini tashkil etgan, zonalar hududining to‘lganlik darajasi esa 42,4 foiz bo‘lgan [33]. Bundan kelib chiqadiki, zonalarni ko‘paytirishning o‘zi yetarli emas, ular eksportga ishlashi uchun rag‘batlar tizimi ham shunga moslashtirilishi kerak.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalari kapital jalb qilish va ishlab chiqarish hajmini oshirishda sezilarli natijaga erishganini ko‘rsatdi. 2022-2025-yillarda MIZ sanoat mahsuloti nominal 2,27 marta (real ifodada taxminan 1,77 marta), investitsiyalar 4,1 marta, ishtirokchilar soni 1,66 marta oshdi. Biroq natijaviylik ko‘rsatkichlari bu o‘sishdan ortda qoldi: eksport ulushi yillar bo‘yicha beqaror bo‘lib, 19,4 foizdan 15,0 foizga tushdi, investitsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti 7,3 so‘mdan 4,0 so‘mga (bir yillik lag bilan - 10,1 so‘mdan 3,7 so‘mga), rentabellik 7,6 foizdan 0,6 foizga pasaydi. Real o‘sishning qariyb 90 foizi yangi ishtirokchilar hisobiga bo‘ldi, bir korxonaga to‘g‘ri keladigan real mahsulot atigi 6,6 foizga ko‘paydi. 2024-yilda EIZ mahsulotining faqat 16 foizi yuqori texnologiyali bo‘lgan [9]. Umuman olganda, zonalar investorlar uchun ishlab chiqarish maydoni sifatida jozibador, ammo eksport va innovatsiya platformasi sifatida hali yetarlicha jozibador emas.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

– **Imtiyozlarni natijaga bog‘lash.** PF-41-son Farmonda belgilangan eksport yo‘nalishini faqat yangi maxsus eksport zonalari bilan cheklamay, amaldagi zonalar rezidentlariga ham tatbiq etish taklif etiladi. Masalan, mahsulotining kamida 30 foizini eksport qiladigan rezidentlar uchun soliq imtiyozlari muddatini uzaytirish, eksport ulushi past korxonalar uchun esa imtiyozlarni bosqichma-bosqich qisqartirish mumkin. 30 foizlik chegara hozirgi o‘rtacha darajadan (15–19 foiz) taxminan ikki baravar yuqori: u rezidentdan sezilarli harakat talab qiladi, ayni paytda eksportga

yo‘naltirilgan korxona uchun erishsa bo‘ladigan daraja hisoblanadi. Chegarani zona ixtisoslashuvi va tarmoq xususiyatiga qarab tabaqalashtirish maqsadga muvofiq.

–**Indikatorli monitoring tizimini joriy etish.** Har bir zona bo‘yicha eksport ulushi, investitsiyalar samaradorligi koeffitsiyenti, rentabellik, bir korxonaga to‘g‘ri keladigan mahsulot va yuqori texnologiyali mahsulot ulushini har yili ochiq e’lon qilish, Farmonda belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar bajarilishini shu indikatorlar orqali baholash. Ikki yil ketma-ket past natija ko‘rsatgan zonalar faoliyatini qayta ko‘rib chiqish.

–**Yangi rezidentlarni maqsadli jalb qilish.** Har bir zona uchun 2–3 ta ixtisoslashuv tarmog‘ini aniq belgilab, shu tarmoqlarda texnologiya olib kiradigan xorijiy kompaniyalarni maqsadli izlash. Bu ekstensiv o‘sishdan unumdorlik hisobiga o‘sishga o‘tishga yordam beradi.

–**Eksport infratuzilmasini rivojlantirish.** Zonalar hududida bojxona postlari, logistika markazlari va sertifikatlash laboratoriyalarini tashkil etish orqali eksport xarajatlari va muddatlarini qisqartirish. 2025-yil 1-iyundan joriy etilgan bojxona imtiyozi [10] amalda samara berishi uchun bu muhim shart.

–**Statistik hisobotni takomillashtirish.** MIZ ko‘rsatkichlarini zona turlari (EIZ, maxsus sanoat zonasi va boshqalar) hamda har bir zona kesimida, korxonalar sonini esa yagona hisob tartibida e’lon qilish. Bu investorlarga zonalarni solishtirish, tadqiqotchilarga esa ularning samaradorligini aniqroq baholash imkonini beradi.

Mazkur takliflar amalga oshirilsa, zonalarning investitsion jozibadorligi miqdoriy o‘sishdan sifat o‘sishiga, ya’ni yuqori qo‘shilgan qiymatli va eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishga o‘tishiga xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlarda zonalar kesimidagi ma’lumotlar asosida ekonometrik baholash o‘tkazish hamda PF-41-son Farmon natijalarini 2026–2027-yillar ma’lumotlarida tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. UNCTAD. World Investment Report 2019: Special Economic Zones. - New York and Geneva: United Nations, 2019. - 237 p.

2. UNCTAD. New global alliance of special economic zones to boost development. - 17.05.2022.

3. FIAS. Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. - Washington, DC: World Bank, 2008.

4. Farole T. Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. - Washington, DC: World Bank, 2011.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni. 17.02.2020, O‘RQ-604-son

6. O‘zbekiston Respublikasining “«Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini soddalashtirishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonuni. 05.12.2024, O‘RQ-1010-son.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “«O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11.09.2023, PF-158-son.

8. Investitsiya va eksport bo‘yicha asosiy vazifalar belgilandi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 16.01.2025. – https://president.uz/oz/lists/view/7825 (murojaat sanasi: 27.10.2026)

9. O‘zbekistonda eksportga ishlaydigan erkin iqtisodiy zonalar tashkil etiladi // Spot.uz. - 17.01.2025.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 04.03.2025, PF-41-son.

11. Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. - Wokingham: Addison-Wesley, 1993. - 687 p.

12. Zeng D.Z. (ed.). Building Engines for Growth and Competitiveness in China: Experience with Special Economic Zones and Industrial Clusters. - Washington, DC: World Bank, 2010.

13. Aggarwal A. Social and Economic Impact of SEZs in India. - New Delhi: Oxford University Press, 2012.

14. Frick S.A., Rodríguez-Pose A. What draws investment to special economic zones? Lessons from developing countries // Regional Studies. - 2023. - Vol. 57, No. 11. - P. 2136-2147.

15. Frick S.A., Rodríguez-Pose A. Special economic zones and sourcing linkages with the local economy: Reality or pipedream? // European Journal of Development Research. - 2022. - Vol. 34, No. 2. - P. 655-676.

16. Rodríguez-Pose A., Bartalucci F., Frick S.A., Santos-Paulino A.U., Bolwijn R. The challenge of developing special economic zones in Africa: Evidence and lessons learnt // Regional Science Policy & Practice. - 2022. - Vol. 14, No. 2. - P. 456-481.

17. Habibjonov U.Sh. Analysis of free economic zones in Uzbekistan // Economics and Innovative Technologies. - 2024. - Vol. 12, No. 5. - P. 88-95.

18. Chinmirzayev Sh.S. Erkin iqtisodiy zonalar: O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun jozibador qilish // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. - 2025. - T. 45, № 2. - B. 323-329.

19. Qilicheva N.Sh. Erkin iqtisodiy zonalar orqali eksport salohiyatini oshirish imkoniyatlari // Tadqiqotlar. - 2025. - T. 61, № 3. - B. 127-131.

20. Mamadiyev E.A., Sharipov K.A. Activities of free economic zones in Uzbekistan // Green Economy and Development. - 2025. - Vol. 3, Issue 12.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2022-yil yanvar-dekabr). - Toshkent, 2023.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati- Toshkent, 2024.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zona, texnopark va klasterlar faoliyati (2024-yil yanvar-dekabr): dastlabki ma’lumot. - Toshkent, 2025.

24. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark va klasterlar faoliyati (2025-yil yanvar-dekabr): press-reliz. - Toshkent, 13.02.2026.

25. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida maxsus iqtisodiy zona, kichik sanoat zonasi, texnopark, klaster va Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyati (2026-yil yanvar-mart): press-reliz. - Toshkent, 15.05.2026.

26. 2025-yilda inflyatsiya 7,3% bo‘ldi // Anhor.uz. - 2026.

27. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi - 2025-yil IV chorak.

28. Markaziy bank asosiy stavkani 14 foiz darajasida saqlab qoldi // Anhor.uz. - 12.06.2025.

29. Zeng D.Z. China’s Special Economic Zones and Industrial Clusters: Success and Challenges // World Bank Blogs. - 27.04.2011.

30. Free-zones handle nearly a fifth of total UAE exports in 2017 // Gulf News. - 05.11.2018.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (2024-yil yanvar-dekabr): press-reliz. - Toshkent, 2025.

32. Uzbek soum depreciated 4.71% against US dollar in 2024 // Gazeta.uz. - 31.12.2024.

33. Can Special Economic Zones Become a Driver of Economic Growth in Kazakhstan? // The Times of Central Asia. - 10.03.2026.